

REDISKA (*RAPHANUS SATIVUS L*) O'SIMLIGI BARGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA XALQ TABOBATIDAGI O'RNI

I.R.Asqarov¹

N.B. Atakulova²

M.Y.Mamadaliyeva³

¹Kimyo kafedrası professori, kimyo fanlari doktori (DSc)

²Kimyo kafedrası dotsent v.b., kimyo fanlari falasafa doktori (PhD).

³Andijon davlat universiteti 4-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20306196>

Dunyoda shifobaxsh o'simliklarni yetishtirish, ularning kimyoviy tarkibini o'rganish, biologik faol birikmalarni ajratib olish hamda o'simliklar asosida yangi turdagi dorivor vositalarni ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada Karamdoshlar (*Brassicaceae*) oilasiga mansub rediska (*Raphanus sativus L*) o'simliklarning kimyoviy tarkibini o'rganish hamda ular asosida inson salomatligi uchun foydali, ayniqsa jigarni tozalash va oshqozon ichak faoliyatini yaxshilovchi xususiyatga ega bo'lgan tabiiy dorivor tovarlar ishlab chiqish, ularning biologik faolligini o'rganish hamda xalq tabobati amaliyotiga joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda dorivor o'simliklarni introduksiya qilish, ularning noyob turlarini yetishtirish, ular orasidan tarkibida inson organizmi uchun foydali bo'lgan shifobaxsh birikmalar saqlagan o'simliklarni aniqlash, ulardan insonlarni davolash, kasalliklarini oldini olish xususiyatiga ega bo'lgan biologik faol birikmalarni ajratib olish hamda strukturalarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Rediska barglari odatda e'tibordan chetda qolib, chiqindi sifatida tashlab yuboriladi. Biroq, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, bu barglar ildizmevasiga (rediska) qaraganda ko'proq foydali elementlarga boy hisoblanadi. Ushbu o'simlikning bir qancha navlari mavjud. Yevropa navlari: Asosan mayda, tezpishar bo'ladi. Masalan: "18 kunlik", "Saks", "Oq kalla". Bularning barglari nisbatan yumshoq va silliq bo'ladi.

Raphanus sativus o'simligi navlari geografik va agroiklim sharoitlariga qarab turli biologik va kimyoviy xususiyatlarga ega. Osiyo (Xitoy va Yaponiya) guruhiga mansub Daykon va Lobu navlari barg massasining kattaligi va biologik faol moddalarga boyligi bilan ajralib turadi. Ushbu navlarda metabolitlar konsentratsiyasi yuqori bo'lib, bu ularning farmakologik qiymatini oshiradi. O'rta Osiyo sharoitiga moslashgan navlar esa quruq iqlimga chidamliligi, barglarining dag'alligi va efir moylariga boyligi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston hududida keng tarqalgan navlar ichida "Lola", "Mayiskiy" va "Dungan" navlari alohida ahamiyatga ega. "Lola" navi tezpisharligi, barglarining to'q yashil rangi va vitaminlarga, ayniqsa askorbin kislotaga boyligi bilan ajralib turadi. "Mayiskiy" navi barg massasining yirikligi va ekstraksiya uchun qulayligi bilan ahamiyatli bo'lsa, "Dungan" navi fitonsidlar miqdorining yuqoriligi sababli kuchli antimikrob xususiyatga ega. Mazkur tadqiqotda aynan "Lola" navi asosiy obyekt sifatida tanlab olindi, chunki u mahalliy sharoitda keng tarqalgan va biologik faol moddalarga boy hisoblanadi.

Kimyoviy tahlillar rediska barglari tarkibida biologik faol birikmalar kompleksini aniqlash imkonini berdi. Barglar vitaminlarga boy bo'lib, ayniqsa vitamin C miqdori ildizmevaga nisbatan 5–6 baravar yuqori ekani qayd etilgan. Bundan tashqari, beta-karotin (provitamin A) va vitamin K mavjudligi aniqlangan. Mineral tarkibda kalsiy, temir, magniy va kaliy elementlari ustunlik qiladi. Antioksidant tizim esa flavonoidlar, polifenollar hamda Glyukozinolatlar bilan ifodalanadi. Ushbu birikmalar organizmda Izotsianatlar ga aylanishi natijasida detoksikatsion va antikanserogen ta'sir ko'rsatadi.

Farmakologik jihatdan rediska barglari ko'p qirrali shifobaxsh xususiyatlarga ega. Ularning gepatoprotektiv ta'siri jigar hujayralarini toksik moddalardan himoya qilish va safro ajralishini rag'batlantirish bilan bog'liq. Antidiabetik xususiyati glyukoza almashinuvini tartibga solish va glikemik indeksni pasaytirish orqali namoyon bo'ladi. Kaliyga boyligi tufayli gipotenziv ta'sir ko'rsatib, arterial qon bosimini me'yorlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, barglar tarkibidagi yuqori miqdordagi kletchatka ichak peristaltikasini yaxshilaydi, bu esa qabziyat va gemorroy kabi kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yallig'lanishga qarshi xususiyatlari esa flavonoidlar va fenolik birikmalar bilan bog'liq bo'lib, revmatizm, bo'g'im va mushak og'riqlarini kamaytirishda qo'llaniladi. Rediska barglariga xos achchiq ta'm Glyukozinolotlar bilan izohlanadi, ular parchalanganda hosil bo'ladigan izotsianatlar esa mikroblarga qarshi va o'sma hujayralari rivojlanishini tormozlovchi xususiyatga ega.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rediska barglarining kimyoviy tarkibi va biologik faolligi o'simlik naviga, tuproq tarkibiga, agrotexnik sharoitlarga va yig'ib olish vaqtiga bevosita bog'liq. Shu sababli sifatli xomashyo olishda ushbu omillarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Amaliy jihatdan rediska barglari farmatsevtika sanoatida istiqbolli xomashyo sifatida qaraladi. Ularning ekstraktlari yo'talga qarshi (antitussiv) siroplar, gepatoprotektor vositalar hamda o'simlik asosidagi kompleks preparatlar tarkibiga kiritilishi mumkin. O'zbekiston sharoitida esa rediska bargi damlamasi va sharbatlari me'da-ichak tizimi yallig'lanish kasalliklarida keng qo'llanilmoqda.

Shunday qilib, rediska (*Raphanus sativus L*) barglari ko'pincha chiqindi sifatida tashlab yuborilsa-da, aslida biologik faol birikmalarning qimmatli manbai hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rediska barglari vitamin, mineral, flavonoid va glyukozinolotlar miqdori bo'yicha ildizmevasiga nisbatan sezilarli darajada ustun turadi. Ular gepatoprotektiv, antidiabetik, gipotenziv, yallig'lanishga qarshi va saratonga qarshi kabi keng qamrovli farmakologik xususiyatlarga ega. "Lola", "Mayiskiy" va "Dungan" kabi o'zbek navlari fitoterapiya va farmatsevtika sanoati uchun xomashyo sifatida alohida istiqbol ko'rsatdi. Ushbu natijalar rediska barglarining xalq tabobatida ham, zamonaviy farmakologiyada ham tabiiy, qulay va samarali resurs sifatida yanada katta e'tiborga loyiq ekanligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. D.M.Moshkovskoy(2012) Lekarstvenne sredstva
2. Jakovishin L.O. Grishkovec' V.I., Korzh O.M. Farmac. zhurn 2010
3. Pisarev D.I., Martynova N.A., Netrebenka N.N., Novikov O.O., Sorokopudov V.N. Himija rastitel'nogo syr'ja, 2009
4. Sara. Xill. Pyaty element zdorovya(2019)
5. Egypt. J. Chem. Vol. 66, No. 10 pp. 203 - 245 (2023)
6. A-Validated-RP-HPLC-PAD-Method-for-the-of-C-in-Khdair-Mohammad
7. Djenna Machchioki.Immunit nauka o tom,kak bt zdorovm.
8. Brejneva, N. D. Samsonova, A. A.Soloduxina, M. V. Popova, A. I.Slivkin Plyush obknovenny i perspektiv ego ispolzovaniya v medisine T. A.
9. <https://bionorica.ua/ru/zdorove/lekarstvennye-rasteniya/listja-redis>.
10. Boris.Bolotov.Gleb.Pogojev.Povshenie immuniteta i regenerasiya tkaney po Bolotovu.